

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
232 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rne	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rne va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	



SERVISLASHGAN JAMIYATDA AVTOSERVIS XIZMATLARINING O'RNI VA AHAMIYATINI YORITISHGA QARATILGAN ILMIY YONDASHUVLAR

UDK 338.46

Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0009-5695-6902>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda avtoservis xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari, uni rivojlantirishning zarurati yoritib berilgan. Avtomobil sanoati va avtoservis xizmatlari ko'rsatish tizimining yaxlitligi milliy avtomobil sanoatini rivojlantirish barobarida avtoservis xizmatlarini rivojlantirish, avtoservis xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, mijozlarga sifatli avtoservis xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, avtomobillar bozorining muqobil energiya manbalariga transformatsiyalashuvi sharoitida ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar zarurligi asoslangan

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, avtoservis, sotuvgacha va sotuvdan keyingi servis, ZeroDefect, 7R, moddiylik, murakkablik, original equipment manufacturer..

Abstract: The article highlights the features and the need for the development of car service in Uzbekistan. Is substantiated the necessity of conducting scientific research aimed at improving the efficiency of car service in the context of the transformation of the automotive market to alternative energy sources, increasing the economic potential of the car by service providers, and improving the quality of customer service.

Keywords: service sector, car service, pre (after)sale services, ZeroDefect, 7R, materiality, complexity of car service, OEM (original equipment manufacturer).

Аннотация: В статье освещаются особенности и необходимость развития услуги автосервиса в Узбекистане. Обоснованы необходимость проведения научных исследований, направленных на повышение эффективности услуги автосервиса в условиях трансформации автомобильного рынка на альтернативные источники энергии, увеличивая экономический потенциал автомобиля поставщиками услуг, повышая уровень качества обслуживания клиентов.

Ключевые слова: сфера услуг, автосервис, предпродажное и послепродажное обслуживание, ZeroDefect, 7R, материальность, сложность услуги автосервиса, original equipment manufacturer.

KIRISH

So'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyot tarkibidagi ulushi ortib borayotgani, ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning xilma-xilligi va dinamikligi mamlakatimiz hamda xorijiy olimlar tomonidan ushbu sohaga bo'lgan ilmiy qiziqishni kuchaytirmoqda. Iqtisodiyotning sanoat sektoridagi mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning xizmat ko'rsatish yo'nalishiga ko'chishi, ayniqsa ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar orasida yuqori ijtimoiy mas'uliyat bilan ajralib turadigan avtoservis xizmatlarining jadal rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Shu nuqtayi nazardan, nafaqat iste'molchilarning, balki aholining hayoti va salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan yo'l-transport hodisalarini kamaytirish, transport vositalarining qoniqarsiz texnik holatini yaxshilash maqsadida, mashinalar va uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlashni qamrab olgan avtoservis xizmatlarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik mutaxassis T. Gennon ta'rifiga ko'ra, bugungi postindustrial iqtisodiy munosabatlar tizimida "... sotuvdan keyingi servis – xaridning zaruriy sharti hisoblanadigan o'ta tajovuzkor iste'molchilik muhiti" [1] zamonaviy tadbirkorlarning asosiy quroli sifatida namoyon bo'ladi.

Utpal M. Dxolakiya va Siddhartx S. Singxlar tomonidan "...avtomobil korporatsiyalari tomonidan sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirish orqali ehtiyot qismlar va zaruriy materiallarga texnik xizmat ko'rsatish, ularni almashtirish kabi operatsiyalarni amalga oshirish ko'p jihatdan mijozlarning moyilligini shakllantirishi" [2] asoslab berilgan.

S. Adyuzey va K. Koduah "...sotuvdan keyingi servisni kuchaytirish, faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida o'zaro manfaatli bo'lgan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish imkonini beruvchi marketing strategiyalarini qo'llashni ko'zda tutuvchi mijozlarga yo'naltirilgan faoliyat" [3] turi sifatida talqin qilgan.

Rossiyalik olimlar I. V. Vorobev va Y. S. Kuznesovning fikriga ko'ra, "...avtoservis — avtomobil transporti tizimiga xizmat ko'rsatishdir. Avtoservis — iste'molchilarni avtotransport vositalari bilan ta'minlash, ulardan samarali foydalanishga o'rgatish hamda ekspluatatsiya davri mobaynida ularni yaxshi holatda saqlash jarayonidir" [4].

V. V. Shmalning ta'kidlashicha, avtoservis "...aholining avtotransport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish, avtomobillarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq xizmat ko'rsatishni yaxlit aks ettiruvchi iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi" [5] hisoblanadi.

O'zbekistonlik olim D. R. Saidovning tadqiqotlarida avtoservis xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallif fikricha, "...mahsulotni sotishdan oldin, sotish davrida yoki sotishdan keyingi bosqichda qo'shimcha ravishda taqdim etiladigan xizmatlar va mahsulot hayot sikli bilan bog'liq yoki mustaqil xizmatlardir" [6].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida avtoservis xizmatlarini alohida obyekt sifatida o'rganish zarurati mavjud. Ushbu xizmatlarning bir vaqtning o'zida moddiylik xususiyatiga ega bo'lishi, texnologik murakkabligi, majmuaviyligi, servisning obyektidan ajralgan holda amalga oshirilishi, shuningdek, ularning maishiy ahamiyatga ega xizmat turi sifatida sotuvdan keyingi servis asosida qiymat yaratishdagi roli chuqur ilmiy tahlilni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumlashtirilgan va yaxlit shaklda ifodalash maqsadida jadval hamda grafik materiallardan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aynan xususiy sektor va xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki xususiy korxonalar faoliyati innovatsion faollik va risklarni samarali boshqarishga, sarflangan moddiy va mehnat resurslari uyg'unligida mumkin bo'lgan eng yuqori foydaga erishishga, to'liq ijtimoiy-iqtisodiy javobgarlikka va moslashuvchan boshqaruvga asoslanadi. Kelgusida milliy iqtisodiyot rivojlanib, ishlab chiqaruvchi kuchlar yuksalib borgani sari xizmat ko'rsatish sohasi ham jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Mamlakatimizda ham xizmatlar sohasida bandlikning ortishi, qo'l mehnatining qisqarishi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish holatlari kuzatilmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarishning tobora murakkablashuvi, bozorning iste'molchilarning kundalik va individual talablarini qondirishga yo'naltirilgan tovarlar bilan to'yinganligi, shuningdek innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal o'sishi xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi rolini tobora dolzarblashtirmoqda. Xizmatlar sohasi tijorat faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa texnik jihatdan murakkab tovarlar – masalan, avtomobillar savdosi bilan bog'liq jarayonlarda sotuvga cha va sotuvdan keyingi xizmatlar tarmog'ini shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekistonda avtomobillar ishlab chiqarish zavodining ishga tushirilishi milliy iqtisodiyotda avtoservis xizmatlarining rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi. Mamlakatning barcha viloyatlarida ushbu zavodda ishlab chiqarilgan avtomobillarni sotish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni tashkil qilish maqsadida zamonaviy texnologik uskunalar bilan to'liq jihozlangan avtosalonlar ochildi. O'tgan davr mobaynida sotuv hajmining 81 foizi ichki bozorga mo'ljallangan A/B/C/LCV (Damas, Labo, Spark, Nexia, Cobalt) toifadagi segmentlarga yo'naltirildi. Asosiy avtoehtiyot qismlar, yog'-moy mahsulotlari va boshqa texnik resurslar import qilingani sababli ularning sifati har doim kafolatli bo'lavermaydi.


Avtoservis xizmatlarining yakuniy natijasi – avtomobil egasining ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishdan iborat. Mijozning yakuniy qoniqish darajasi esa avtoservis korxonasining umumiy maqsadi, marketing strategiyasi va xizmatlar sifatini boshqarish samaradorligiga bevosita bog'liqdir (1-rasm).



1-rasm: Avtomobil sanoati va avtoservis xizmatlari ko'rsatish tizimining yaxlitligi

1-rasmdan xulosa qilinsa, avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning avtoservis korxonasiga bevosita ta'siri kompaniya missiyasi, strategiyasi va avtoservisning marketing siyosatida to'liq aks etmaydi. Shunga ko'ra, avtoservis xizmatlarini ko'rsatish jarayoni mijozning qo'shimcha xohish-istaklariga asoslangan holda moddiy, texnologik va majmuaviylik tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, bu xizmatlar avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning sifat talablariga muvofiq "qo'shimcha operatsiya" tarzida ham bajarilishi mumkin.

Avtomobil sanoatida xizmat ko'rsatishning ilg'or texnologiyalaridan biri – iste'molchilarga avtomobillarni sotishdan keyingi xizmatlar majmuasini taqdim etishdir. Sotuvdan keyingi servis, ayniqsa, xizmatlar sohasi bilan ishlab chiqarish sohasi o'rtasidagi uyg'unlik bilan ajralib turadi. Tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish tizimi – korxona va iste'molchi o'rtasidagi aloqani saqlab qolgan holda qo'shimcha qiymat yaratishni ta'minlaydigan barcha quyi tizim funksiyalari va qo'shimcha faoliyatlar majmuasidan iboratdir. Ushbu majmua avtoservis xizmat ko'rsatish tizimining konseptual modelini aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm: Avtoservis xizmat ko'rsatish tizimining konseptual modeli

Sotuvgacha bo'lgan xizmat ko'rsatish – bu iste'molchiga mahsulotni xarid qilish uchun tuzilgan bitim asosida yoki buyurtma olingan vaqtdan boshlab uni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda taqdim etiladigan xizmatlar majmuasidir. Sotuvgacha servis ko'p jihatdan ishlab chiqarishga xos xususiyatga ega bo'lib, quyidagi talablarga javob beradi: mahsulot sifati eng yuqori darajada bo'lishi, belgilangan joyga o'z vaqtida yetkazilishi, kompaniya mahsulotlari uchun qo'shimcha va ehtiyot qismlar kamchiliklarsiz (Zero Defect) yetkazib berilishi, mijoz buyurtmasiga tezkor moslashuv, istalgan rang, model va konfiguratsiyadagi mahsulotni taqdim etish.

Sotuvgacha xizmat – ishlab chiqarish va marketing faoliyatini boshqarishning zamonaviy konsepsiyasini ifodalaydi va "7R" tamoyiliga asoslanadi:

- Right product – zaruriy tovar;
- Right quality – zaruriy sifat;
- Right quantity – zaruriy miqdor;
- Right time – zaruriy vaqtda;
- Right place – zaruriy joyga;
- Right customer – zaruriy iste'molchiga;
- Right cost – eng maqbul xarajatlar darajasida yetkazib berish.
- Sotuvdan keyingi xizmat esa mahsulotning keyingi hayot davrida, ya'ni ekspluatatsiya bosqichida uning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, avtoservis xizmatlari, bir tomondan, kompaniya tomonidan sotuvdan keyingi servis orqali qiymat yaratish va zaruriy sifat darajasini ta'minlashga, sotilgan avtomobillarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish shartlarini o'z ichiga olgan faoliyat turi bo'lsa, ikkinchi tomondan, xizmatlar bozorining va iste'mol-



chilarning o'ziga xos xususiyatlari, xohish-istaklari hamda talablariga ko'ra belgilanishi mumkin bo'lgan jarayondir. Shu sababli, ma'lum bir avtomobilga avtoservis xizmati ko'rsatish jarayoni uning sotilishidan oldin ham, sotilishidan keyin ham amalga oshiriladi va u quyidagi asosiy tadbirlarni qamrab oladi:

- mahsulotlarni sotishdan keyingi kafolatli ishlash davrida ko'rsatiladigan xizmatlarga qo'yiladigan talablarni aniqlash;
- iste'molchiga taqdim etiladigan xizmat turlarini belgilash;
- sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish tartibini ishlab chiqish;
- xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaratish va uni belgilash;
- operatsion va ta'mirlash ishlari uchun malakali kadrlar tayyorlash;
- zaruriy texnik hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish;
- mahsulot uchun zarur ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar bilan ta'minlash;
- sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish tizimini boshqarish;
- mahsulotlarni zamonaviy modifikatsiyalar bilan almashtirish, eskirgan mahsulotlarni iste'molchi uchun qulay shartlarda qayta ishlash yoki ta'mirlash;
- transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash.

O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi" [7] (IFUT, 2-tahrir) bo'yicha avtoservis "G" bo'limiga (ulgurji va chakana savdo; avtotransport vositalarini, mototsikllarni, uy-ro'zg'or buyumlarini va shaxsiy buyumlarni ta'mirlash) kiradi. Mazkur bo'lim o'zgartirmasdan sotish (ya'ni qayta ishlab chiqmasdan) va tovarlarni sotish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Ulgurji va chakana savdo tovarlarni iste'molchiga yetkazishning oxirgi bosqichini tashkil etadi. Mazkur seksiyaga avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash ham kiradi. 45-bo'lim avtomobillar va mototsikllar, jumladan yuk avtomobillari va g'ildirakli shatakchilar bilan bog'liq (lekin ishlab chiqarish va ijarani o'z ichiga olmagan) barcha faoliyat turlarini qamrab oladi. Bunga yangi va ishlatilgan transport vositalarining savdosi, ularni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, shuningdek ehtiyot qismlar va aksessuarlarning ulgurji va chakana savdosi kiradi. Shuningdek, "... bu bo'limga transport vositalarining ulgurji va chakana savdosida ishtirok etuvchi komission agentlar faoliyati ham kiradi" [8].

45.20-sinf (motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- motorli transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;
- mexanik va elektrotexnik ta'mirlash ishlari;
- yoqilg'i quyish tizimini ta'mirlash;
- muntazam texnik ko'rik va joriy ta'mirlash;
- kuzovni ta'mirlash;
- ehtiyot qismlarni va aksessuarlarni ta'mirlash;
- yuvish, sayqallash va boshqa tozalash ishlari;
- bo'yoq purkash va bo'yash;
- old oynalarni va boshqa oynalarni ta'mirlash;
- o'rindiqlarni ta'mirlash;
- shina va kameralarni o'rnatish yoki almashtirish;
- korroziyaga qarshi ishlov berish;
- shatakka olish;
- ishlab chiqarish jarayoniga kirmaydigan ehtiyot qismlar va uskunalarini o'rnatish.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda esa avtomobillarga, transport vositalariga hamda turli mashina va uskuna turlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bilan bog'liq xizmatlarni o'rganishda "avtoservis" va "avtoservis xizmatlari" atamalariga keng urg'u berilmoqda. Buning asosiy sabablari quyidagicha izohlanadi:


– yuqori darajada moddiylashganligi – avtoservis xizmatlari birinchi navbatda avtoehtiyot qismlar chakana savdosini rag'batlantiruvchi vosita sifatida avtojihozlar, aksessuarlar va turli pardozlash vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Bu xizmatlar maxsus jihozlangan joyda, zaruriy bilim va malakaga ega mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi;

– takroriy hosil bo'lish xususiyati – zamonaviy texnika va texnologiyalar, yangi uskunalar asosida taqdim etiladigan xizmatlar servis turlarining kengayishiga olib keladi. Masalan: raqamli diagnostika, elektr ta'minotini ta'mirlash, balanslash, changga qarshi ishlov, avtotyuning va boshqalar;

– majmuaviyligi – yangi texnologiyalar va uskunalar xizmat doirasini kengaytirib, elektr tizimlarini ta'mirlash, avtomobil diagnostikasi kabi xizmatlarni o'z ichiga oladi;

– murakkabligi – mijozlar o'z ehtiyojlariga mos murakkab kombinatsiyadagi xizmatlarni tanlashi mumkin bo'lganligi sababli, bu xizmatlar yuqori darajadagi malaka, sohaviy bilim va tajribani talab qiladi;

– servisni ajratish mumkinligi – avtoservis xizmatlari odatda insonga bevosita emas, balki transport vositasiga qaratilgan bo'lib, subyekt va obyektidagi munosabatlar aniq chegaralangan. Shu sababli mijozning xizmat jarayonidagi bevosita ishtiroki talab etilmaydi (3-rasm).



3-rasm: Avtoservis xizmatlari ko'rsatishda xizmat ko'rsatuvchi sub'ekt va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning xususiyati¹

Mamlakatimizda avtomobil bozorining globallashuvi, yirik OEM (original equipment manufacturer) ishlab chiqaruvchilarining kirib kelishi, shuningdek avtoservis xizmatlari ko'rsatishning ilg'or texnologiyalari va xorijiy tajribalarining joriy etilishi ehtiyot qismlar ishlab chiqarishini jadal tashkil etishga, zamonaviy avtoservis xizmatlariga investitsiya kiritish bo'yicha investorlar ishtiyoqining ortishiga olib kelmoqda. Chunki avtoservisga bo'lgan talab hajmi yuqori bo'lib, unifikatsiyalashgan ehtiyot qismlar ishlab chiqarish ko'lami kengaymoqda. Bu esa avtoservis xizmatlari ko'rsatishning barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lishiga zamin yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda texnik va texnologik jihatdan murakkab sanoat mahsulotlariga, xususan avtomobillarga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish tizimini samarali tashkil etish raqobatbardoshlikning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli avtomobillarga sotuvdan keyingi davrda avtoservis xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirish, ishlab chiqaruvchilar va avtomobil egalari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlashda ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekistonda mavjud avtomobillarning 67 foizi foydalanish muddatini o'tab bo'lganligini inobatga olgan holda, ushbu transport vositalariga xizmat ko'rsatishda eng yuqori sifat darajasiga erishish bevosita mustaqil faoliyat yurituvchi avtoservis korxonalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda mahalliy darajada avtoehtiyot qismlar va agregatlar ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirish, shuningdek avtoservis xizmatlarini rag'batlantirishga qaratilgan siyosatni kompleks tarzda qayta ko'rib chiqish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Чуприна И.С. (2012). Управление техническим обслуживанием на промышленном предприятии в условиях глобализации. Научные труды Вольного экономического общества России, 166, 127-131.
2. Dholakia, Utpal M. and Singh, Siddharth S. and Westbrook, Robert A., Understanding the Effects of Post-Service Experience Surveys on Delay and Acceleration of Customer Purchasing Behavior: Evidence from the Automotive Services Industry (February 9, 2010). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=1550390> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.1550390>
3. Adusei, C. and Tweneboah-Koduah, I. (2019). After-Sales Service and Customer Satisfaction in the Automobile Industry in an Emerging Economy. Open Access Library Journal, 6, e5167. doi: <http://dx.doi.org/10.4236/oalib.1105167>.
4. Воробьев, И.В. Сервисная деятельность (автомобильный транспорт). Часть 1. Виды и формы организации услуг в автомобильном сервисе: учеб. пособие / И.В. Воробьев, Г.Ш. Муравкина. – М.: МАДИ, 2019. – 176 с.
5. Шмаль, Вера Васильевна. Организация управления корпоративными структурами автосервиса. автореф. дис.

¹ Manba: muallif ishlanmasi.



- к.э.н. Санкт-Петербургская государственная академия сервиса и экономики. Санкт-Петербург. 2005. – 20 стр
6. Д.Р.Саидов. Автосервис хизматлари сифатини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Урганч – 2022. – 52 б.
 7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 24 августдаги 275-сон “Иқтисодий фаолият турларини таснифлашнинг халқаро тизимига ўтиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
 8. Худайберганов, Д. Т. Хизматларни таснифлаштириш тажрибалари ва уларнинг миллий ҳисоблар тизимидаги ўрнини такомиллаштириш / Д.Т.Худайберганов, И.А.Маткаримова. // Молодой ученый. — 2016. — № 29 (133). — С. Т.3. 35-38.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100